



MOLIYA SOHASIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING AHAMIYATI

Abdikarimova Aynura Abay qizi

Toshkent davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliya sohasida raqamlashtirish jarayonlarining ahamiyati va afzalliklari yoritilib berilgan. Ya'ni moliya sektorini raqamlashtirish ham davlat, ham tijorat tashkilotlarining moliyaviy resurslarini boshqarish shaffofligini ta'minlaydi. Raqamli moliya xizmatlar bozorining afzalliklari shundaki, ushbu xizmat turidan foydalanuvchilar o'zlariga qulay va hamyonbop bo'lgan xizmat turini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, moliya tizimi, raqamli moliya xizmatlar bozori, raqamli moliya, raqamli bank, bank tizimi, moliyaviy texnologiyalar.

Zamonaviy dunyoda hayotni texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Raqamli texnologiyalar hozirgi zamon inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalari hayotimizga tez kirib bormoqda va yangi ijtimoiy munosabatlarni olib kelmoqda. Bundan tashqari, raqamlashtirish natijasida hayotimizga biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan tushunchalar ham paydo bo'lmoqda. Bu jarayonlarning barchasi raqamlashtirish natijasida amalga oshmoqda.

Raqamlashtirish jarayoni rivojlanib jamiyatning turli sohalariga kirib bordi. Hozirgi paytda raqamlashtirish jarayoni davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shu kabi sohalarga kirib, ushbu sohalarning ajralmas bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, raqamlashtirish jarayonining iqtisodiyotga ta'siri sezilarli ahamiyat kasb etib,



iqtisodning ko'plab tarmoqlarini o'zgarishiga, rivojlanishiga va yangi tarmoqlarni yaratishga olib keldi.

Jumladan, raqamlashtirishning iqtisodga kirib kelishi natijasida, birinchi navbatda, ishlab chiqarishdagi samaradorlik yana ham yaxshilandi, mustahkamlandi va rivojlandi.

Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.

Ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotga bog'liq 50 foizdan ortiq sohalarni keskin o'zgartirib yuboradi. Ushbu qarash axborot texnologiyalari va raqamli platformalar biznes modellarni keskin o'zgartirib, ularning samaradorligini vositachilarni bartaraf etishi va jarayonlarni optimallashtirishiga asoslangan.

Hozirda raqamli texnologiyalar moliya sohasida ham keng qo'llanilmoqda. Ular real vaqt rejimida tezroq va aniqroq hisobot berish va umuman moliyaviy boshqaruv uchun qulay sharoitlar yaratadi. Moliyaviy xizmatlar sektori keng ko'lamli raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda va bu sohadagi kompaniyalar o'z bizneslarini qanday olib borishiga keng ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi texnologiyalar banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan kompaniyalariga o'z operatsiyalarini ko'rib chiqish va mijozlariga xizmat ko'rsatishning turli usullarini aniqlash imkonini beradi.

Bugungi kunda mamlakatni rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishi uning raqamli iqtisodiyotga o'tishidir. O'zbekiston iqtisodiy faoliyat va davlat boshqaruvining asosi sifatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga urinmoqda.



Mamlakat hukumati tomonidan qonunchilik darajasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Moliya tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosidir. Moliya sektorini raqamlashtirish ham davlat, ham tijorat tashkilotlarining moliyaviy resurslarini boshqarish shaffofligini ta'minlaydi. Asosiy vazifasi iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish bo'lgan davlat siyosatining muvaffaqiyati moliyaviy resurslar qanday shakllantirilishi, taqsimlanishi va ishlatilishiga, iqtisodiyotning real sektorini, fan, ta'lim va madaniyat moliyalashtirish mexanizmi qanchalik samarali ekanligiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda raqamli moliya xizmatlar bozorini rivojlantirish, aholini sifatli raqamli moliya xizmatlar bilan qamrab olish, iste'molchilarning iqtisodiy manfaatlarini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy islohotlarning hozirgi davrida moliya xizmatlar bozorida raqamli faoliyatni tashkil qilish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Buning boisi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning turli yo'nalishlarini raqamlashtirish, ya'ni kichik korxonalardan boshlab davlat boshqaruvidagi barcha tashkilotlarni qamrab olmoqda.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.03.2018-yil "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli qarorida bank xizmatlari ommabopligining dolzarb muammolari yuzasidan mavzuga oid izlanishlar olib borish, xalqaro tajribani o'rganish va uni Respublika bank xizmatlari bozorida qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish, banklar va ularning mijozlari uchun axborot-tahliliy va konsalting xizmatlarini tashkil etish, masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha zamonaviy va ilg'or bank xizmatlari turlarini amaliyotda joriy etish tashabbuslarini ilgari surish, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalar belgilab berilganligi raqamli moliya xizmatlar bozorini rivojlantirish zarurligini anglatadi.



Raqamli moliya xizmatlar bozorining afzalliklari shundaki, ushbu xizmat turidan foydalanuvchilar o'zlariga qulay va hamyonbop bo'lgan xizmat turini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Chunki, raqamli moliya- mobil telefonlar, shaxsiy kompyuterlar, internet yoki ishonchli raqamli onlayn va oflayn to'lov tizimiga ulangan kartalar orqali taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlar bozoridir. Raqamli moliya ko'plab yangi moliyaviy raqamli mahsulotlar, moliyaviy xizmatlar, moliya bilan bog'liq dasturiy mahsulotlar, innovatsion moliyaviy xizmatlar provayderlari va FinTech kompaniyalar tomonidan taqdim etiladigan aloqa va mijozlarning o'zaro munosabatlarining yangi shakllarini qamrab oluvchi jarayon.

Raqamli moliyaviy xizmatlar an'anaviy bank xizmatlariga qaraganda qulayroq va arzonroq bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashovchi qashshoq odamlarga moliya tizimida mablag'larni tejash, kredit olish, moliyaviy xizmatlardan osonlik bilan foydalanish va iste'mol qilishga imkoniyat yaratib beradi. Bundan tashqari raqamli moliya xizmatlarning bir qancha afzalliklari mavjud bo'lib, sekin rivojlanayotgan mamlakatlarning iste'molchilarga arzon, qulay va xavfsiz bank xizmatlarini taqdim etish imkoniyatiga egadir.

Olib borilayotgan tahlil natijalariga ko'ra mamlakatimizda raqamli moliya xizmatlar bozorini rivojlantirish bo'yicha quyidagi muammolar aniqlanadi:

- Mamlakatimiz AKTlarining fundamental darajasi, shu jumladan, kommunikatsiya infratuzilmasining yomonligi va qimmatliligi;
- Viloyatlarda yashovchi aholining raqamli texnologiyalardan foydalanish bilim va ko'nikma darajasining pastligi;
- Mamlakatimiz aholisining uyali aloqa xizmatlariga ulanganlik darajasining pastligi, mamlakatimizda bulutli xizmatlarning yaxshi rivojlanmaganligi, shuningdek axborot texnologiyalarga qilinayotgan xarajatlar hajmining pastligi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning raqamli texnologiyalardagi ulushining pastligi;



- Venchur sarmoyasi kiritilishining kamligi, patentlar berilishining qiyinligi va yangi innovatsion g'oyalarning amaliyotga tadbiiq etilish darajasining pastligi;
- Davlat tomonidan tadqiqot va ishlanmalarga qilinayotgan xarajatlar ulushining pastligi, ishlab chiqarish, biznes va xususiiy sektor o'rtasidagi integratsiyaning rivojlanmaganligi, intellektual mulk to'g'risidagi qonunlarning takomillashmaganligi va unga rioya qilish darajasining sustligi;
- Moliya tizimida zamonaviy texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish darajasi bo'yicha jahon mamlakatlariga nisbatan mamlakatimiz orqada qolayotganligi va nufuzli reytinglarda past o'rinda ekanligi;
- Raqamli moliya xizmatlar bozorida zamonaviy moliya texnologiyalarini ishlab chiqish va undan erkin foydalanish salohiyatiga ega yuqori malakali moliyachi-dasturchi kadrlar sonining kamligi va boshqalar.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va raqamli moliya xizmatlar bozorini rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni faollashtirish lozim deb hisoblaymiz:

- Raqamli texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amaliy ish ko'nikmalariga ega malakali kadrlarni tayyorlash, aholining bilim saviyasini oshirish, ilmiy tadqiqot va amaliy ishlanmalarga xarajatlarni ko'paytirish;
- Raqamli moliya xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida universitetlar va ishlab chiqarish, biznes va xususiiy sektor o'rtasidagi integratsiyasini ta'minlash;
- Raqamli moliya xizmatlar bozorini rivojlantirish sohasidagi tashabbuslarni moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashni tashkil etish uchun grantlar va kredit liniyalarini ajratish;
- Raqamli bank faoliyatining ilg'or xalqaro tajribasini o'rganish hamda raqamli bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish;



- O'zbekiston Respublikasi hududini rivojlangan mamlakatlar darajasida internet global tarmog'iga ulanish imkoniyatlari bilan imkon qadar to'liq qoplashni bosqichma-bosqich ta'minlash;
- Raqamli moliya xizmatlar bozorini rivojlantirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o'rganish hamda raqamli moliyaviy xizmatlar va mahsulot turlarini joriy etishning institutsional mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

Bugungi kunda O'zbekistonda bank tizimini raqamli transformatsiyasi bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi. O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Prezident Farmonida raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish, iqtisodiyotni real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha manzilli dasturni tasdiqlash, tasdiqlangan manzilli dastur doirasida belgilangan loyihalarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotni real sektorida hamda moliya va bank sohalarida faoliyatini raqamlashtirish darajasini 30 foizga yetkazishga qaratilgan ishlarni olib borish chora-tadbirlari belgilab berildi, jumladan:

- Moliyaviy-iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruvni optimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlari;
- Savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimlari;
- Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va dispetcherlik boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha tizimlari;
- Bank xizmatlari onlayn turlarini kengaytirish hamda kredit ajratish bo'yicha tahlillarni avtomatik tarzda amalga oshirish bo'yicha scoring tizimlarini joriy etilishini inobatga olish;



- Bank tizimini transformatsiya qilishni yakunlash, xususiy banklarning ulushini 2025 yilda jami bank aktivlarining 60 foiziga yetkazish;

Zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan faol qoʻllagan xolda moliyaviy xizmatlar, operatsiyalarni taklif etish, naqd pulsiz toʻlovlarni rivojlantirish, naqd puldagi toʻlovga nisbatan naqdsiz toʻlovlarni arzonroq boʻlishini taʼminlash, davlat xizmatlari uchun toʻlovlarni naqd pulsiz shaklda amalga oshirish imkoniyatini yaratish, ilgʻor xorijiy tajriba asosida amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish orqali ularning ommabopligini oshirishni nazarda tutish, moliyaviy xizmatlarni koʻrsatishda kiberxavfsizlikni taʼminlash, jismoniy shaxslar tomonidan naqd pulsiz toʻlovlarni amalga oshirish uchun qulay infratuzilmani yaratishdan iborat.

Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish strategiyalari hozirda respublikamizdagi eng yirik banklari tomonidan faol amalga oshirilmoqda, ular onlayn muhitda foydalanuvchi ehtiyojlariga funktsional imkoniyatlarni faol raqamli moslashtirish, barcha mahsulotlarni raqamli kanallarga oʻtkazish, iloji boricha raqamli sohadagi shiddatli raqobatda ishtirok etishga intilmoqda.

Shunday qilib, moliyaviy texnologiyalar bozorini rivojlantirishni ragʻbatlantiruvchi asosiy omil internet va raqamlashtirishni rivojlantirishdir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Agar rivojlanishning ilk bosqichlarida moliyaviy texnologiyalar bozori toʻlovlar va elektron pullarni qabul qilish bilan cheklangan boʻlsa, hozirgi vaqtda boshqa bir qator xizmatlar keng tarqalmoqda. Moliyaviy sektorni raqamlashtirish istiqbollari juda yuqori. Yaqin kelajakda moliyaviy munosabatlarni maksimal darajada soddalashtirishga qaratilgan yangi mahsulotlar va vositalar paydo boʻlishini inkor etib boʻlmaydi. Va bunda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning muhim sharti birinchi navbatda raqamli makomda xavfsizlikni taʼminlash, ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilishni taʼminlaydigan meʼyoriy-huquqiy bazani shakllantirish va



rivojlantirish, shuningdek ushbu sohada jinoyatchilikka qarshi kurashish mexanizmlarini joriy etish ekanligini unutmashlik darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xashimova S., Abdikarimova A. RAQAMLI IQTISODIYOT HAQIDA TUSHUNCHA, AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 6 Part 6. – С. 225-228.
2. Хашимова С. Н. ПАНДЕМИЯ ШАРОИТИДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2022. – №. 3 (151). – С. 77-80.
3. Xashimova S. N., Abdikarimova A. A. BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA YASHIL IQTISODIYOT VA RAQAMLASHTIRISH.
4. G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) – T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b.
5. <https://lex.uz>